

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|----|
| B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova | |
| Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish | 7 |
| G.G'.G'affarova | |
| Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil..... | 13 |
| K.D.Yarashev | |
| Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi..... | 17 |
| A.A.Rayimov | |
| O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati | 21 |
| O.A.Ashurova | |
| Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti | 25 |
| N.M.Aliyev | |
| Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari..... | 30 |
| S.S.Ulkanov | |
| Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari | 35 |
| T.M.Burxanov | |
| O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili | 40 |
| U.R.Radjapov | |
| Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari..... | 44 |
| Sh.A.Mamajonov | |
| Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir | 48 |
| F.K.Yusupova | |
| Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni | 53 |
| O.O.Qodirov | |
| O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati | 58 |
| M.M.Mamatkodiroy | |
| Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish | 63 |

IQTISODIYOT

| | |
|--|----|
| X.X.Bozarov | |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish..... | 70 |

FALSAFA

| | |
|--|----|
| I.A.Suvanov | |
| Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar | 76 |
| A.N.Meliboyev | |
| Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari | 83 |
| G'.Z.Abduraxmonov | |
| G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari..... | 88 |
| S.S.Jabborova | |
| O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli | 93 |

**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINING EKOESTETIK
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA'MINOTI****МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****METHODOLOGICAL PROVISION OF THE DEVELOPMENT OF ECOAESTHETIC
CULTURE OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATION SPECIALISTS****Ashurova Oygul Anvarjonovna¹****¹Ashurova Oygul Anvarjonovna**

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari, bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirish ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish va bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekologik-estetik dunyoqarashni shakllantirish, rivojlantirish to'g'risidagi fikr mulohazalar yoritib berilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены приоритетные направления развития экоэстетической культуры будущих специалистов дошкольного образования, реализация развития экоэстетической культуры будущих педагогов системы дошкольного образования в процессе экологического образования и воспитания, эколого-эстетического мировоззрения будущих педагогов. Выделены мнения воспитателей о становлении и развитии.

Abstract

The article discusses the priority directions for the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists, the implementation of the development of eco-aesthetic culture of future teachers of the preschool education system in the process of environmental education and upbringing, and the ecological and aesthetic worldview of future teachers. The opinions of educators about formation and development are highlighted.

Kalit so'zlar: ekoestetik madaniyatni, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, ekologik-estetik dunyoqarashni, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, maktabgacha ta'lim, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: экоэстетическая культура, новое развитие, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, эколого-эстетическое мировоззрение, индивидуальные качества, всесторонне развитая личность, образовательные стандарты, дошкольное образование, научно-методика.

Key words: eco-aesthetic culture, new development, modern outlook, scientific-theoretical views, ecological-aesthetic outlook, individual qualities, well-rounded person, educational standards, preschool education, scientific-methodology.

KIRISH

O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida ham ekologik masalalar, tabiatda ro'y berayotgan noxush hodisalar oqibatini bartaraf etish, ro'y berishi mumkin bo'lgan bunday vaziyatlarning oldini olish kabi dolzarb vazifalarga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Insonning tabiatga noto'g'ri munosabati natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni nihoyatda katta.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda ekoestetik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning maqsad va vazifalarini ko'rib chiqish, ustuvor vazifalarini belgilab olish uchun ekologik ta'lim-tarbiya va unga aloqador tushunchalarning mazmun mohiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Ekoestetik ta'lim va tarbiya orqali kishilarda, jumladan, yoshlarda tabiatni go'zallashtirish borasidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi estetik dunyoqarashlar, o'z o'lkasi va vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan xususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, Yer yuzasi atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashga oid

muammolarni anglash va ularning yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi rivojlantiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aslida, ekologik ta'lim, tarbiya va amaliyot mohiyati uning uch yo'nalishdagi tadqiqot qilish, o'rgatish va amalga joriy etish predmetida o'z aksini topadi: ekotizimlarni (tabiiy va antropogen o'zgargan) muhofaza qilish; ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish; buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash.

Ekologik ta'lim-tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiya yoshlarni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish hamda tejamkorlikka o'rgatishda qo'l keladi. Albatta, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan hurmat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim masalalardan sanaladi. Bu, o'z navbatida, pedagog kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha jabhalar qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida to'laqonli huquqiy-me'yoriy baza yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, boshqa qator hujjatlar ekologik ta'lim-tarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya fanini o'qitishning majburiylikni ta'minlash mustahkamlab qo'yilgan. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab bolalarda tabiatga mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, ekologiyaga oid bilimlarni ular shuuriga singdirish darkor. Bu kelajakda atrof-muhitni muhofaza qila oladigan va tabiatdan oqilona foydalanadigan avlodni shakllantirishning muhim shartidir. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod tabiat haqidagi bilimlarni egallab, tevarak-atrofning nozikligini, uning go'zalliklarini qalban his qila olsagina, ona-Vatanga, uning tabiatiga muhabbati oshadi. Ta'lim tashkilotlarida o'qitish jarayonida bolalar ongini hozirgi ekologik muammolar mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan boyitish va shu bilimlarni ularning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunday mas'uliyatli vazifani hal qilish uchun tarbiyachidan shu soha bo'yicha bilimga, pedagogik mahoratga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lish, shuningdek, tinimsiz izlanish, o'rganish talab qilinadi. Bu borada ta'lim tashkilotlarida "Ekologik markaz", "Ekologik to'garak"larni tashkil qilish, muntazam ravishda ekofestivallar yoki tanlovlar o'tkazib turish, o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali materiallarni nashr etish yaxshi samara berishi, shubhasiz. Ekologik ta'lim-tarbiyani yuzaga keltiruvchi maskanlardan yana biri – bu mahalla. Darhaqiqat, xalqimizda tabiatga bo'lgan ehtirom tarix kabi ko'hnadir. SHu ma'noda azaliy qadriyatlarimizdan bo'lmish umumxalq hasharlarini o'tkazish va ularga yoshlarni ko'proq jalb etish ayni muddao. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan turkum ko'rsatuv, eshittirishlar, ijtimoiy ekologik rolklarni muntazam efirga uzatib borish, vaqtli matbuot nashrlarida maqolalar chop etish orqali targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish ham aholining ekologik madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Muxtasar aytganda, jamiyatimizda yoshlarning ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiyasi, ekologik madaniyatini yuksaltirishning yo'nalishlari ko'p. Eng muhimi, ular hayotimiz asosi bo'lgan tabiat ne'matlarini asrashga xizmat qilsagina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishamiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan "Ekolog bolajon" dasturi ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ko'zda tutilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rta, katta va maktabgacha tayyorlov guruhlari uchun jonsiz tabiat (o'simliklar dunyosi), jonli tabiat (hayvonot dunyosi) hamda sayrda bo'lib o'tadigan jonsiz va jonli tabiat tushunchalarini uyg'otishga yo'naltirish, bunda mavzularni qayta belgilashda er yuzida, shu jumladan, yurtimizda yo'qolib borayotgan va kamyob turdagi o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ularni asrab-avaylash masalasiga alohida urg'u berish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kundalik faoliyatni mazmunli tashkil etishda atrof-muhitni muhofaza qilish va atrofimizdagi olamni toza saqlash, shu jumladan, maishiy chiqindilardan tozalash kabi tushunchalar bilan boyitib borish va amaliyotchi sifatida bolalarni tashkilot hududidagi chiqindilarni turiga qarab chiqindi yashiklariga tashlashga o'rgatib boriladi.

NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ekologik yo'lakchalar" tashkil etish orqali O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik va hayvonlar haqidagi dastlabki tushunchalar tarbiyalanuvchining ongiga singdiriladi, muhofaza qilinadigan o'simlik va hayvonlar rasmlarini chizish orqali tarbiyalanuvchilarda dastlabki ekologik bilimlar shakllantiriladi. Tarbiyalanuvchilar uchun ona tabiatni asrab-avaylash va ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini kuchaytirish mavzusida turli teatrlashtirilgan tomoshalar va sahna ko'rinishlari tashkil etish zarur. Tarbiyalanuvchilarda ona tabiatga nisbatan mehr hissini uyg'otish, ularning ekologik tarbiyasini yanada kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining roli yanada kuchaytiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga bilim berish «oddiydan murakkabga», "uzviylik va uzluksizlik" kabi pedagogik tamoyillarga tayangan holda nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga, bolalarda ekologik madaniyat hamda tarbiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlaydigan maqsadli tizimga aylanishi kerak. Ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalar mavjud o'quv fanlari mazmunida uzviylik asosida beriladi va bir butun kompleks tarzda ifodalanadi. Bunda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar minimal darajada ekologik tushunchalar, xulq-atvor qoidalari (ekologik madaniyat) to'g'risida bilimga ega bo'ladi, ekologik bilimlar kundalik faoliyat davomida majburlovchi chora sifatida emas, balki atrof-olamga bo'lgan munosabat orqali singdiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida suvni tejash va asrash, atmosfera havosining ahamiyati va uni muhofaza qilish, yer resurslari va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, chiqindilarni yig'ish va joylashtirish,

O'zbekistonning go'zal va takrorlanmas tabiatini asrash, o'zi yashaydigan qishloq (shahar) tabiatini asrashda faol ishtirok etish, O'zbekistondagi qo'riqxonalar va tabiat bog'lari to'g'risida, Orol dengizi fojiasi to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga musiqaga oid fanlarga ona tabiat bolaning ota-onasidek azizligi mavzusidagi qo'shiqlarni yoddan bilish hamda kuylay olish, tabiat manzaralarini kuzatish va tasvirlay olish, tabiatga zarar etkazishning, shu jumladan, chiqindilar belgilanmagan joylarga tashlanishning salbiy oqibatlarini tushuna olish, inson va tabiat o'rtasidagi mehr-muhabbatni kuchaytirishga qaratiladi.

Ekoestetik ta'limning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ekotizimlar go'zalligi va ulug'vorligini saqlab qolish uchun ekoestetik ta'lim, tarbiya va amaliyot birligini ta'minlash. Ushbu maqsadga erishmoq uchun milliy miqyosda quyidagi ekologik tushdagi vazifalarni bajarish talab etiladi: ekologiyaning umume'tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish; uning tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollari turli ekotizimlar doirasida uzviy bog'langan holda baholash; ekologik konsepsiya va harakatlar dasturini ishlab chiqish; taktik va strategik ekologik rivojlanish rejalarini qabul qilish; ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish; ekologik qonunchilik bazasini har tomonlama tahlil qilish va uni amaliyot bilan bog'lash mexanizmini yaratish; milliy ekologik ta'limning majburiylik prinsipini amalda qo'llash; ekologik ta'limni barqaror rivojlanish qoidalariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish kabi masalalarni hal etishga undaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ekoestetik tarbiyani amalga oshirish pedagog-psixologlarning zimmasiga yuklatiladi. Ekoestetik tarbiya bolalarning tevarak-atrofga nisbatan kuzatuvchanligini oshiradi, tabiat voqea-hodisalarining sodir bo'lish sabablarini aniqlashga qiziqishlarini kuchaytiradi. Natijada, bolalarning idroki, aqli, ekologik ongi, dunyoqarashi, tasavvuri rivoj topadi. Ayniqsa, bolalarga borliqdagi jonli tabiat haqida umumiy axborot, olam bir butun ekanligini anglab yetishlariga, hayot go'zalliklaridan ma'naviy zavq olishlariga va shu go'zallikni qadrlashlariga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

Jahonning barcha mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo'lmoqda. Endilikda respublikamizda chiqindisiz, kam chiqimli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy-huquqiy choralar ko'rish, ekologik ma'rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo'lga qo'yish, tabiat, atrof-muhitga ko'rsatlayotgan salbiy antropogen ta'sirlarni kamaytirish, insonning atrof-muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qo'yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas'uliyatni his qilishi, ekoestetik didini tarbiyalashga, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi lozimligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Vatanimiz tabiati, atrof-muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat va unga mas'uliyat bilan qarash hissini maktabgacha yoshdagi har bir bola shaxsida tarbiyalashimiz lozim. Maktabgacha yoshdagi bola o'z atrofidagi tabiiy-ijtimoiy muhit ta'sirida va mahallada o'rnatilgan axloqiy-ekologik tartibotlar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go'zal tabiati, uning kelgusi holati aynan ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabati orqali belgilanadi.

MUHOKAMA

Insoniyat juda qadim zamonlardan tabiat bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga intilib kelgan. Sababi, ibtidoiy inson tabiatdagi barcha mavjud narsa-hodisalarni o'zi kabi jonli (ruhi bor) deb o'ylab ular bilan ehtiyotlik ila muomala qilgan. Ibtidoiy odam o'z hayotining tabiat bilan chambarchas bog'liqligini his qilgani bois, hatto olamning asosida ham to'rtta tabiat unsuri—yer, suv, havo, olov (quyosh) yotadi deb aytgan va aynan shu tabiat resurslarini ko'proq asrab-avaylashga intilgan. Xullas, qadimgi ajdodlarimiz tabiatni jiddiy kuzatar ekan, undan o'zi uchun foydali ko'p narsalarni kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Shu kuzatishlar zahirida inson tabiatdan nusxa ko'chirib, juda ko'p bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Masalan, ari uyasiga qarab, ko'p qavatli uylar qura boshlagan. Qushning parvozi samolyotning yaratilishiga turtki bo'lgan. Quyoshga qarab lampochkalar kashf etilgan va hakozi. Bularning barchasi kuzatishlar-tabiatni bilishning, tushunish va his etishning eng asosiy vositasi ekanligi namoyon etadi. Shunday ekan, hozirgi yoshlar ham tabiat bilan yaqindan oshna tutinsalar, uni jiddiy kuzatib, o'rganib borsalar hali ko'y yangi narsalarni kashf qilishga musharraf bo'lishlari mumkin. Chunki tabiat azaldan insonni to'ydirib, yedirib, ichirib, kiyintirib kelayotgan ona kabi g'amxo'r va mehribondir. U haligacha insonlardan o'z saxovatini darig' tutmay kelayotir. Bunga javoban insoniyat ham ona kabi mehribon tabiatni har tomonlama asrab-avaylashi, uning boyliklaridan oqilona va rejali foydalanishi juda muhimdir.

O'zbekiston tabiatida bola uchun kerakli bo'lgan bilim va taassurotlarga ega bo'lishga yordam beruvchi manbalar yetarlidir. Tevarak-atrofdagi mavjud bo'lgan jonsiz va ayniqsa, tirik tabiat obyektlariga bo'lgan qiziqish bolalarda erta paydo bo'ladi. Bolada ko'z bilan ko'rgan narsalarga nisbatan qiziqishi orta boradi. Bundan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, ranglar jilosi, turli-tuman hid, ovozlari ham ular diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bolalar hamma narsani o'z ko'zlarini bilan yaqindan ko'rishga, ushlab ko'rishga harakat qiladilar.

Bolalardagi atrof-muhitga bo'lgan estetik munosabati va qiziqishni qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, ularni tabiatni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash kerakligini esdan chiqarmaslik kerak. Shunga e'tibor berish kerakki, katta odamlarning o'zlarini tabiatni sevishlari va bu tuyg'uni bolalarda uyg'ota olishlari zarur. Biz insonlarning hech qachon tabiat bilan aloqamiz uzilmaydi. Shunday ekan, bolalarga kichkina dala, gulning chiroyi, quyosh botishidagi ranglar jilosi, nastarin gulining gullashini ko'rish va qushlar chug'urlashining ohanglarini eshitish uchun sabr-toqatli bo'lish kerakligi va go'zallikni his qilishni o'rgatish lozim. Ekologik ta'lim-tarbiya maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash, tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishlarida katta yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya bo'yicha quyidagi tushunchalarni berish maqsadga muvofiqdir:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar tabiatda o'zlarini qanday tuta bilishi, qoidalarga amal qilib, tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirish ko'nikmasini shakllantirish;
- ekologik tushunchalarni turli faoliyatlarda qo'llay olish;
- bolalarning tabiat bilan qilgan muloqotlarini to'plab borish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari bu masalalarni hal qilishga muayyan rejalar orqali erishadilar:

- tarbiyachilar bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishga tayyor bo'lishlari shart;

Tabiatdagi mehnat bolalarda tirik mavjudotlarga rahm-shafqatli bo'lish hissini tarbiyalaydi. Bu o'z navbatida ularning ruhan sog'lom bo'lishlarini ta'minlaydi. Bolalar tabiatda qilgan mehnatlari natijalaridan xursand bo'ladilar, tabiatga nisbatan do'stona munosabatlarini namoyon etadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar turli jonzoqlar, o'simliklarni parvarishlaganlaridan so'ng, ularning kayfiyatlari ko'tarilib, ma'naviy ozuqa oladilar. Tabiat haqida bolalarga kitob o'qib berish orqali tabiat haqidagi bilim, ko'nikma va malakalar oshirib boriladi.

PEDAGOGIKA

Ekologik ta'lim-tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatli bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- bolalarning o'zi yashab turgan shahar, qishloq, mahalla, xonadoniga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usi, vatanparvarlik ruhini shakllantiradi;
- bolalar ona tabiatni sevish, ardoqlash, undan g'ururlanish ruhida tarbiyalanadi;
- bolalarda suvni iflos va isrof qilmaslik tushunchalari rivojlanadi;
- bolalarda kuzatuvchanlik, atrof-muhit go'zalligini anglash bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi;
- bolalar o'simliklar, hayvonlar tabiatning bir qismi, inson u bilan bog'liqligi, tabiatni asrab-avaylash zarurligini tushunib yetadilar.

«Bolajon» dasturida ko'rsatilishicha, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiatga oid bilimlar mazmunining asosini ularni o'rab turgan tabiat, ya'ni o'simlik va hayvonlar, buyumlar, turli xil hodisalar, fasllar, tabiatni muhofaza qilish haqidagi ilk tushunchalar berish tashkil etadi.

Dasturda maktabgacha yosh ruhiy holati, dunyoqarashi inobatga olingan holda, ularga beriladigan ekologik bilim va ekologik tarbiya quyidagi yosh bosqichlariga ko'ra taqsimlanadi:

1. Ilk yosh davrida (1-2 yosh) bolalarning atrofdagi hayvon va o'simliklarning nomini bilishiga, ularda o'simlik va hayvonlarga nisbatan qiziqish uyg'otish; jonivorlarga mehr bilan munosabatda bo'lishga odatlantirish; suv, yomg'ir, qor, issiq va sovuq havo haqida tushuncha berish orqali tasavvur uyg'otish asosiy vazifadir.

XULOSA

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ekologik fanlar bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beruvchi omillar aniqlandi. Aksariyat holatlarda, ta'lim yoki tarbiya jarayonining muvaffaqiyati muayyan omillarning ta'siri hisobiga ta'minlanadi.

Xulosa qilganda, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning ekoestetik madaniyatini rivojlantirish asosida tarbiyalanuvchi bollarning tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislarining ekologik va estetik dunyoqarashini uyg'unlikda rivojlantirish zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси// <https://review.uz/oz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент. Ўзбекистон. 2018. – Б 252.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси// <https://review.uz/oz/post/uzbekiston-respublikasi->
4. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Ўзбекистонга тегиш-ли иккинчи Атроф-муҳит ҳолати шарҳининг 29-серияси. 2010.
5. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат дастурлари. – Т., 2008.
6. «Болажон» таянч дастури. – Т., 2010